

**BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARINI ZAMONAVIY AXBOROT  
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH USULLARI**

**Eshova Sanobar Raxmonovna**

**Adizova Nigora Sattorovna**

**Ergasheva Laylo Ibobullayevna**

Navoiy viloyati Navbahor tumani

5- umumiy o'rta ta'lif maktabi

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinfning matematika darslarini zamonaviy axborot texnologiyalari orqali mazmunli tashkil etish hamda innovatsion texnologiyalar orqali tashkil etilgan darslarning samaradorligi haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** axborot texnologiyalari, innovations texnologiyalar, zamonaviy kompyuterlar, pedagogik texnologiyalar, multimedia, animatsiya, modellashtirish, interfaol metod, didaktik o'yinlar, topshiriqlar.

Boshlang'ich maktab o'qituvchisi dars jarayonida axborot va kommunikatsion texnologiyalarni qo'llashi zaruriyatga aylanib ulgurdi. Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan o'qituvchilarning darslarga ijodiy yondashishini ta'minlash, ular faoliyatiga ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish hamda o'quvchilarning dastlabki bilim egallash poydevori mustahkam bo'lishi, barcha fanlarni o'zlashtirishga qiziqishini oshirish maqsadida zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etib kelinmoqda. Bugungi kunda ta'lif jarayonini samarali va mazmunli tashkil etishda innovations texnologiyalarning, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o'mni beqiyosdir.

Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida dars jarayonini tashkil etishda o'qituvchi dastlab:

- darsning maqsadi;
- maqsadga erishish yo'llari;
- o'quv materiallarini taqdim etish usullari;
- o'qitish metodlari;
- o'quv topshiriqlarining turlari;
- muhokamalar uchun savollar;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari;
- o'zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlab olishi lozim bo'ladi.

Hozirgi kunda maktab ta'limi jarayonida yangi innovatsion zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va uni o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan, qiziqishga bo'lgan e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda maktab o'quvchilari faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, yangi innovatsion zamonaviy axborot texnologiyalarida ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funktsiyasini bajaradi.

O'qituvchi dars jarayonini tashkil etar ekan, aynan darsning shakli, metodi va vositalari ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli ta'minlanishiga olib keladi. Shular yordami bilangina o'quv predmetining mavzusi borasidagi nazariy bilimlar o'quvchilarga uzatiladi, o'quvchilar tomonidan esa ushbu bilimlar qabul qilinadi. Dars mashg'uloti uchun eng maqbul deb topilgan shakl, metod va vositalarning belgilanishi ta'lim jarayonining qariyb 90 foizlik muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy mohiyati aynan mana shu bosqichda ochib eriladi. O'quvchilarni ijodiy izlanish, faollik, erkin fikr yuritishga yo'naltiruvchi ta'lim shakli, metod va vositalarning to'g'ri tanlanishi dars jarayonini samarali, qiziqarli, bahs-munozaralarga boy bo'lishi, ijodiy tortishuvlarning yuzaga kelishiga turki bo'ladi. Mana shu holatdagina o'quvchilar tashabbusni o'z qo'llariga oladilar, o'qituvchining zimmasida esa ularning faoliyatini ma'lum yo'nalishga solib yuborish, umumiylar faoliyatni nazorat qila olish, murakkab vaziyatlarda yo'l-yo'riq ko'rsatish, maslahatlar berish hamda ular faoliyatini baholash kabi vazifalar qoladi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Boshlang'ich ta'limda matematika darslari sifat va samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Xususan, matematika darslarida "Multimediali dars"lardan foydalanish boshlang'ich ta'lim dars jarayonida sifat va samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Bu jarayonda o'qituvchi:

- o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etadi;
- yangi materialni jadallik bilan yetkaza biladi;
- axborotlar tezligi va hajmini animatsiyalar ko'magida boshqara biladi.

Matematika fanlarini o'qitishda yangi texnik vositalar, shu jumladan, kompyuter va boshqa axborot texnologiyalarining jadal kirib kelayotgan

hozirgi davrida fanlararo uzviylikni ta'minlash maqsadida informatika yutuqlaridan foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Keyingi o'n yillikda matematika fanini o'qitishda kompyuterlardan foydalanish bir necha asosiy yo'nalishlarda olib borildi. Bularga kompyuter yordamida bilimni baholash, turli tipdagi o'rgatuvchi dasturlarni ishlab chiqish va rivojlantirish, bilishga oid matematikaviy o'yinlarni ishlab chiqish va boshqalar kiradi. Matematika o'qitishda kompyuterlearning qulayligining yana bir yo'nalishi ayrim o'quv holatlarini modellashtirishdir. Modellashtirilgan dasturlardan foydalanishning maqsadi, o'qitishning boshqa usullari qo'llanganda tasavvur qilish, ko'z oldiga keltirish qiyin bo'lgan materiallarni tushunarli bo'lishini ta'minlashdan iborat. Modellashtirish yordamida o'quvchilarga ma'lumotlarni grafik rejimda kompyuter multimediasi ko'rinishida taqdim qilish mumkin.

Matematika darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish.

Qachonki bu metodlar samarali natija bera oladi?

- dars va mavzuning maqsadlari to'g'ri aniq tanlanganda;
- mavzuga mos metodlarni tanlay olinsa;
- bir metod butun dars davomini qamrab olmasdan, balki kichik daqiqalarni qamrab olsa;
- tanlangan metod o'quvchilarga yangi bir axborotlarni yetkazib bersa;

"Fikrlarning shiddatli hujumi" metodi

Ushbu metod Y.A. Aleksandrov tomonidan asoslangan hamda G.Y. Bush tomonidan qayta ishlangan.

Metodning mohiyati quyidagidan iborat:

- jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish;
- o'quvchilarda ma'lum jamoa tomonidan bildirilgan fikrga qarshi g'oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishdan iborat.

"Fikrlarning shiddatli hujumi" metodidan foydalanishga asoslangan mashg'ulot quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

1-bosqich: Ruhiy jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan o'quvchilarni o'zida biriktirilgan hamda son jihatdan teng bo'lgan kichik guruhlarini shakllantirish;

2-bosqich: Guruhlarga hal etish uchun topshirilgan vazifa yoki topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqadigan maqsadlarni aniqlashi;

3-bosqich: Guruhlar tomonidan muayyan g'oyalarning ishlab chiqilishi (topshiriqlar hal etilishi);

4-bosqich: Topshiriqlarning yechimlarini muhokama etish, ularni to'g'ri hal etilganligiga ko'ra turkumlarga ajratish;

5-bosqich: Topshiriqlarning yechimlarini qayta turkumlashtirish, ya'ni ularning to'g'riliqi, yechimni topish uchun sarflangan vaqt, yechimlarning aniq va ravshan bayon etilishi kabi mezonlar asosida baholash;

6-bosqich: Dastlabki bosqichlarda topshiriqlarning yechimlari yuzasidan bildirilgan muayyan tanqidiy mulohazalarni muhokama etish hamda ular borasida yagona xulosaga kelish.

Metodni qo'llash jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi:

- o'quvchilar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishish;
- vaqt ni iqtisod qilish;
- har bir o'quvchini faollikka undash;
- ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirish.

«Videotopishmoq» metodi

Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televiedeniye, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta'lif jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar oldida ta'lif jarayonida turli axborot vositalaridan o'rinci va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi.

Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o'quvchilar e'tiboriga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;
- o'quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;
- jarayonlarning mohiyatini daftarlariiga qayd etishadi;
- o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O'quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o'z fikrmulohazalarini bildirishadi.

Mana shunga o'xshash didaktik o'yinlarni tashkil qilar ekanmiz, yuqoridaqgi tasvirda ko'rishimiz mumkinki, zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni beqiyos, natijasi esa undanda samaraliroq. Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiyl o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or

pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini kafolatlaydi. Maktab ta'limining bugungi vazifasi o'qituvchilarning yangi innovatsion axborot texnologiyalari orqali dars jarayonlarini tashkillashtirishi, dars davomida samarali foydalanib o'quvchilarga ma'lumotlarni aniq va tushunarli qilib yetkazib berishidan iborat. Shuning uchun ham dars davomida o'qituvchi o'quvchilarning matematika fanini tushunarli aniq qilib o'rganib borishida ham darslarni yangi innovatsion zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib tashkil etish va o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy axborot texnologiyalarini maktab ta'lim muassasalariga tatbiq etish o'qitish jarayonini optimallashtirishga keng yo'l ochib beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Azizxodjaeva N.N. O'quv jarayonining samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalar.—T.: 2007.—14—23-bet.
2. Abduqodirov A.A., Hayitov A.G., Shodihev A.A. Axborot texnologiyalari. — Toshkent, 2004. - 76 b.
3. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari: Ped. fan. dok. diss... — Toshkent: TDPU, 2006. – 263 b.
4. Abdullayeva B.S., Saidova M.J., Dilova N.G. Matematika o'qitish metodikasi. Darslik. 2021, - 300 b.